



QOVOQ O`SISHI, RIVOJLANISHI VA AXAMIYATI

Rajabova Dilafro`z Rustamovna
Urganch davlat Universiteti magistranti
Urganch, O`zbekiston

Annotatsiya. *Qovoq juda foydali poliz o`simligi hisoblanadi. Respublikamizda qovoqni ekish jarayoni har xil muddatlarda amalga oshiriladi. Janubiy viloyatlarda 1-10 aprelda, shimoliy viloyatlarda 25-aprel va 10-mayda, markaziy viloyatlarda 10-20-aprel sanalarida ekiladi. Ekish sxemasi 290x70/2 x90 sm ni tashkil qiladi. Qovoqning o`shishi va rivojlanishi uchun qulay harorat 25-32 oC ni tashkil qiladi. Qovoqni ekishdan oldin ekiladigan maydondagi hududning iqlim sharoiti, tuproqning xolati tekshiriladi.*

Kalit so`zlar: *qovoq, urug`, toksin, provitamin A, radioaktiv, qovoq yetishtirish.*

O`zbekistonda qovoqning uchta turga mansub ya`ni qattiq po`stli yoki oddiy qovoq – Cucurbita pepo, muskat qovoq – Cucurbita moschata va yirik mevali – Cucurbita maxima navlari ekiladi. Cucurbita avlodiga kiruvchi qovoqning 27 turi bo`lib, shundan faqat 6 turi madaniylashgan, qolganlari esa yovvoyi holda uchraydi.

Qovoq o`simligi – bir yillik, madaniy, dorivor o`simlik bo`lib, qovoqdoshlar oilasiga kiradi. Bu o`simlikning vatani - Janubiy va Markaziy Amerika. Ammo ba`zi adabiyotlarda Meksika aholisi 5000 yildan ko`proq vaqt davomida qovoq yetishtirishganligi yozilgan. Boshqa olimlarning fikricha esa qovoq Xitoyga Forsdan olib kelinganligini aytib o`tishgan. Bu esa qadimgi Xitoy qo`lyozmalari tasdiqlaydi. Bundan tashqari Shimoliy Afrikada 1926 yilda akademik Vavilov boshchiligidagi rus ekspeditsiyasi yovvoyi qovoq navlarini topgan. XVI asrning boshlarida qovoq Rossiyaga olib kelingan va keng tarqalgan.

Qovoqni urug`ini ekmasdan oldin ularni qo`lda saralash, shikastlanganlarini olib tashlash talab etiladi. So`ngra ularni yuqori sifatli namuna ekanligiga ishonch hosil qilish uchun ularni sho`rlangan eritmada namlash mumkin. Bunda odatda 1litr suv uchun 1 osh qoshiq tuz solinadi. Keyin urug`larni eritmaga botirib, 1 soatga qoldiriladi. Bunda sog`lom urug`lar pastga cho`kadi, qolganlari esa suv yuzasida qolib ketadi. Sifatli urug`lar yuvilib quritib ekishga tayyorlanadi. Qovoq ekilishi uchun qulay joy quyosh nuri to`g`ri tushadigan joy hisoblanadi, uni soya joyga ekish mevani kichkina bo`lib qolishiga sabab bo`ladi.

Qovoq yetishtirishda - qovoq oilasidan har qanday sabzavot ilgari o`sgan joylarda ekish qat`iyan tavsiya etilmaydi, chunki bu tuproqdagi kasalliklarning to`planishiga yordam beradi. Bunday joylarday yer kamida uch yil dam olishi kerak. Boshqa har qanday joylarda qovoq muammosiz o`stirish mumkin. Turp, piyoz, karam, sabzi, maydanoz, o`tlar va har qanday erta sabzavotlardan keyin qovoq ekish yaxshidir. Bu o`simlikning urug`i, pulpasi dorivorligi ma`lum. Shuning uchun ham qovoq eng foydali o`simliklardan hisoblanadi va u ko`plab sabzavot o`simliklarning orasida juda



foydaliligi bilan ajralib turadi. Chunki uning tarkibida sabziga qaraganda karotin miqdori besh marta ko'p. Ushbu provitamin A - ko'rish qobiliyatini, terining elastikligini yaxshilaydi va immunitetni ham oshiradi.

Qovoq urug'i antigelmintoz bo'libgina qolmasdan, undan olinadigan moy eng qimmat baholanadi. Qovoqni muntazam iste'mol qilish ftorid miqdori ham ko'p bo'lganligi uchun tish va milklarni mustahkamlaydi. Uning siqilgan sharbati qonda xolesterin miqdorini ham pasaytiradi shuning uchun qon aylanishi yaxshilanadi va jigarni tozalaydi. Inson tanasidagi radioaktiv elementlar va toksinlar ham qovoq orqali tozalanishi aniqlangan. Qovoq parxezbop o'simliklar qatoriga ham kirib uni oshqozon bilan bog'liq kasalligi bor bemorlar kamroq yegani ma'qul sababi u oshqozonga zarar yetkazishi ham mumkin.

Poliz ekinlariga mansub qovoqning mevasi tarkibida oson hazm bo'ladigan qand bo'lib, u jigar, buyrak va yurak-qon tomir kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Qovoqning eti yallig'lanishga qarshi davolashda ishlatiladi. Qovoqdoshlar issiqlik va qurg'oqchilikka chidamli, yorug'sevlar qisqa kunli o'simliklar hisoblanadi.

Respublikamizda qovoqni ekish jarayoni har xil muddatlarda amalga oshiriladi. Janubiy viloyatlarda 1-10 aprelda, shimoliy viloyatlarda 25-aprel va 10-

mayda, markaziy viloyatlarda 10-20-aprel sanalarida ekiladi. Ekish sxemasi $\frac{290 \times 70}{2} \times 90$ sm ni tashkil qiladi. Qovoqning o'sishi va rivojlanishi uchun qulay harorat 25-32 °C ni tashkil qiladi. Qovoqni ekishdan oldin ekiladigan maydondagi hududning iqlim sharoiti, tuproqning xolati tekshiriladi. Tuproqda urug'lar unib chiqishi uchun yetarlicha namlik, havo bo'lishi lozim. Tuproqda agrotexnik sharoitlar o'tilkazilgandan keyin tuproq ekishga tayyor bo'lgandan keyin urug'lar ekiladi. Urug'lar bir kecha-kunduz davomida iliq suvga botirilib qo'yiladi. So'ngra, har bir uyaga urug'lar 3-5 urug'dan 5-7 sm chuqurlikda ekiladi. Urug'lar 12-15 °C da unib chiqa boshlaydi. Urug'lar ekilgandan keyin besh kun o'tgach ilk chin burglar chiqa boshlaydi. Qovoqning o'sish jarayoni quyidagi fazalarni o'z ichiga oladi: chin barg chiqarish, palak yoyish, g'unchalash, meva tugush va meva pishish. Respublikamiz hududida ekiladigan qovoq navlari ertagi, o'rtagi, kechpishar navlarga bo'linadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. V.I.Zuyev, O. Qodirxo'jayev, M.M.Adilov, U.I.Akramov " Sabzavotchilik va Polizchilik" 2009 y.
2. D.Y.Yormatova, M.Ibrohimov, D.S.Yormatova " Meva-Sabzavotchilik" Toshkent-<<Talqin>>-2008 y.
3. X.Ch.Bo'riyev " Sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi" Toshkent "Mexnat" 1999 y.